









II. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 35 341,6 mlrd so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 7,3 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 110,2 % ni tashkil qildi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 4,4 % ga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish


(yanvar-iyun oylarida)

| | Ko'rsatkichlar | Mlrd so'm | | O'sish sur'atlari, % da |
|---|---|-----------------|-----------------|-------------------------|
| | | 2024- yil | 2025- yil | |
| | I. YAHM | 29 906,0 | 35 341,6 | 107,3 |
| | shu jumladan: | | | |
|  | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 29 462,5 | 34 724,3 | 107,2 |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar | 443,5 | 617,3 | 109,9 |
| | II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 29 462,5 | 34 724,3 | 107,2 |
|  | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 6 948,8 | 7 889,5 | 104,3 |
| | Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 7 539,4 | 9 147,2 | 110,2 |
|  | sanoat | 5 306,3 | 6 420,0 | 109,1 |
|  | qurilish | 2 233,1 | 2 727,2 | 112,7 |
| | Xizmatlar | 14 974,3 | 17 687,6 | 107,1 |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 5 684,8 | 6 944,8 | 109,7 |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 682,2 | 2 145,1 | 115,9 |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari | 7 607,3 | 8 597,7 | 103,2 |

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi (% da)
2024- yil yanvar-iyun




Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibidagi ulushi (% da)
2025- yil yanvar-iyun



Yalpi hududiy mahsulotda 2025- yil yanvar-iyun oylari davomida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 381 468,9 mlrd so‘mni tashkil etib, shundan Namangan viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmi 24 338,9 mlrd so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasida 326 349,3 mlrd so‘mni, Namangan viloyatida esa 20 671,9 mlrd so‘mni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotda 2025- yil yanvar-iyun oylarida respublikadagi barcha kichik tadbirkorlik (biznes)ning umumiy hajmdagi ulushi 49,6 % (2024- yil yanvar-iyun 50,7 %) ni tashkil etgan bo‘lsa, Namangan viloyatining ulushi 70,1 % (2024- yil yanvar-iyun 70,2%) ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 70,1 % ni tashkil qildi (2024- yilning yanvar-iyun oyida – 70,2 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

Aholi jon boshiga nisbatan Yalpi hududiy mahsulot hajmi (ming so‘m)

| Ko‘rsatkichlar | 2024- yil yanvar-iyun | 2025- yil yanvar-iyun |
|----------------|-----------------------|-----------------------|
| Yanvar-iyun | 9 708,1 | 11 237,2 |

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMni ishlab chiqarish
(2025- yil yanvar-iyun)

| Ko'rsatkichlar | mlrd so'm | | Respublikada tutgan ulushi, % da |
|---|--------------------------|-------------------|----------------------------------|
| | O'zbekiston Respublikasi | Namangan viloyati | |
| I. Yalpi hududiy mahsulot, jami | 333 592,7 | 35 341,6 | 10,6 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 319 817,0 | 34 724,3 | 10,9 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 13 775,7 | 617,3 | 4,5 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 319 817,0 | 34 724,3 | 10,9 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 30 448,1 | 7 889,5 | 25,9 |
| Sanoat (qurilish sohasini qo'shgan holda) | 109 985,2 | 9 147,2 | 8,3 |
| sanoat | 89 119,9 | 6 420,0 | 7,2 |
| qurilish | 20 865,3 | 2 727,2 | 13,1 |
| Xizmatlar | 179 383,7 | 17 687,6 | 9,9 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 39 115,7 | 6 944,8 | 17,8 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari | 32 018,9 | 2 145,1 | 6,7 |
| boshqa xizmatlar | 108 249,1 | 8 597,7 | 7,9 |

YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 22,7 %), sanoatda – 109,1 % (18,5 %), qurilishda – 112,7 % (7,9 %), xizmatlar sohasida – 107,1 % ni (50,9 %) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,7 % (20,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,9 % (6,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,2 % dan (24,7 %) iborat bo'ldi.

2024-2025- yil yanvar-iyunda YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)

